



Nomozova O'g'ilo' Akmaljon qizi,
«Oila va xotin-qizlar» ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti

SHARQ ALLOMALARI ASARLARIDA NUTQ ODOBI HAQIDAGI QARASHLAR VA ULARNING OILAVIY MUNOSABATLARDAGI O'RNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada oila, oilaviy nizolar va oilaviy munosabatlarda muloqot madaniyatining dolzarbligi hamda oila mustahkamligiga ta'sir qiluvchi omillar asoslangan bo'lib, maqolada ayrim Sharq allomalarining aynan so'z va nutq odobi xususidagi fikrlaridan parchalar keltirib o'tilgan. Jumladan, Alisher, Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarning bu xususdagi qarashlari va ularni oilaviy hayotga tatbiq etish tahlilga tortilgan.

Tayanch so'zlar: nikoh, oila, jamiyat, farovonlik, barqarorlik, oila mustahkamligi, so'z, nutq odobi, muloqot, nutq madaniyati.

Аннотация. В данной статье акцентируется внимание на актуальность культуры общения в семейных конфликтах и семейных отношениях. Помимо этого, на основе факторов, влияющих на крепость семьи приводятся выдержки из мнений некоторых восточных ученых о речи и речевом этикете. В частности, анализируются взгляды таких мыслителей, как Алишер Навои, Абу Али ибн Сина, Кайковус, Абдулла Авлони и их приложение к семейной жизни.

Ключевые слова: брак, семья, общество, благополучие, стабильность, крепость семьи, речь, речевой этикет, общение, культура речи.

Annotation. This article focuses on the relevance of the culture of communication during, family conflicts and family relations. Beside this, on the basis of factors affecting family strength, some Eastern scholars opinions about speech and speech etiquette were given in the article. In particular, the views of such thinkers as Alisher Navai, Abu Ali ibn Sina, Kaikavus, Abdullah Avlani and their application to family life were analyzed.

Keywords: marriage, family, society, well-being, stability, family strength, speech, speech etiquette, communication, speech culture.

Kirish. Jamiyat rivojlanishi, jamiyatda barkamol avlodning kamol topishi bevosita oilaga, oilaviy muhitga bog'liq jarayon hisoblanadi. Insonni komillik sari yetaklovchi jamiki ezgu fazilatlar, shuningdek, salbiy xususiyatlar ham, avvalo, oilada shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan oila va jamiyat taraqqiyotining o'zaro aloqasi barcha davrlarda soha vakillarining, balki butun jamiyatning diqqat-e'tiborida bo'lgan. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Xalqimiz azaldan oilani muqaddas bilib, uni doimo asrab-avaylab keladi. Oila qanchalik mustahkam bo'lsa,

jamiyat ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Bir narsani unutmasligimiz lozim: xonadonlarimizdagi tinchlik-totuvlik, avvalo, oiladagi muhit, mustaqil hayot ostonasida turgan qizlarimizni oilaviy turmushga tayyorlash bilan bevosita bog'liq"¹. Oila bilan bog'liq muammolar kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgan emas, bu insoniyatning hamma davrlarida dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda

¹ https://daryo.uz/2020/12/26/shavkat-mirziyoyev-songgi-11-oyda-yosh-oilalar-ortasida-qancha-ajrim-qayd-etilganini-malum-qildi/?fb_comment_id=3750635561670728_3750706044997013/

va har bir davrda olimlar, soha mutaxassislari o'z fikr-mulohazalarini keltirib o'tadilar. Mazkur maqolamizda esa bu borada Sharq allomalarining oila xususidagi fikrlariga to'xtalib o'tamiz.

Maqsad va uni asoslash. Oila, nikoh va oilaviy munosabatlar masalalari azaldan xalqimiz uchun muqaddas qadriyatlardan hisoblangan. Oilaviy munosabatlar, oilada er va xotinning o'zaro munosabatlarida oilaviy nizolarni yuzaga keltiruvchi yoki uni bartaraf etib, oila mustahkamligini ta'minlovchi bir qancha omillar mavjud. Bunday omillar qatorida muloqot madaniyati ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, oilada er va xotin munosabatlarining ijobiy kechishida muhim rol o'ynaydi. Zero, har bir nutq ma'lum bir maqsad bilan so'zlanib, o'z g'oyaviy yo'nalishi va estetik ta'sir kuchiga ega bo'ladi².

Oila mustahkamligi jamiyat poydevoridir. Oila ensiklopediyasida oila mustahkamligi omillari quyidagi turkum omillarga asoslanadi³ (1-jadval).

Demak, mazkur omillarning har biri oila mustahkamligida o'z ahamiyatiga ega. Yuqorida keltirilgan omillar qatorida muloqot madaniyati ham oilaviy munosabatlarning barqaror kechishida katta rol o'ynaydi. Oilada er va xotin nutq madaniyatiga amal qilgan muloqot olib borishi nafaqat oila farovonligi ta'minlash, balki farzandlarining tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yib borishida ham yetakchi faktor hisoblanadi.

² Musayev A. Nutqni shakllantirish omillari va uning asosiy xususiyatlari.

³ Oila ensiklopediyasi. / tuzuvchilar: Akramova F.A., Bilolova Z.B., Jovlijev I.C.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Ma'lumki, nutqiy muloqotda jo'yalilik, aniqlik, estetik ta'sir qilish, so'zlarni chiroyli ohangda to'g'ri tallafuz qilish kabi masalalar muloqot jarayonining samarali kechishini ta'minlaydi. Aynan oilaviy munosabatlarda ham bu holat eng muhim faktorlardan hisoblanadi, chunki so'z orqali insonlar o'zaro bir-birlariga psixologik ta'sir etadi. Masalan, oilada qandaydir oilaviy nizo kelib chiqqanda so'z orqali, nutq madaniyati orqali nizoni bartaraf etish mumkin yoki aksincha, nizoni avj oldirish mumkinligi ham ehtimoldan xoli emas.

Muloqotning samarali kechishi ma'lum qoidalar, muomala tamoyillariga amal qilish bilan bogliq⁴. Ushbu masalalar azaldan e'tiborga molik sanalib kelingan. Xususan, bu borada bir qancha Sharq allomalari o'z asarlarida qimmatli fikrlarini bayon etishgan. Jumladan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Kaykovusning "Qobusnoma", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" va "Hayrat ul-abror", shuningdek, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Abdulla Avloniy, Fitrat asarlarida so'z, muloqot madaniyati haqida qimmatli fikrlar bayon etilgan. Quyida nomlari tilgan olingan olimlarning so'z, nutq haqidagi fikrlarini keltirib o'tamiz va tahlil qilamiz.

A.Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida so'zning manfaati xususida fikr bayon etib, shunday deydi: "Agar so'z aql va hikmatga muvofiq bo'lub, o'ziga yoki eshituvchiga

⁴ Сафаров Ш. Прагмалингвистика / Монография. – Тошкент, 2008. – Б. 135.

1-jadval

OILA MUSTAHKAMLIGI OMILLARI			
ijtmoy omillar	biologik omillar	xarakter xususiyatlaridagi o'ziga xos omillar	muhit, ta'lim-tarbiya ta'sirida kuzatiladigan turli xislatlar
er-xotinlarning ma'lumot saviyasi, dunyoqarash darajasi, ijtmoyi kelib chiqishi, qanday oilada voyaga yetgani (serfarzand, kam farzandli, ko'p pog'onali, nuklear, birinchi oila, baynalmilal oila, yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, rasmiylashtirilmagan, hududga ko'ra: shahar, qishloq);	organizmning sog'lom yoki nosog'lomlik holati, tana tuzilishidagi o'ziga xosliklar. Tug'ma jozibalilik yoki xunuklik	temperament toifasidagi o'ziga xosliklar, ya'ni jo'shqinlik, harakatchanlik, janjalkashlik, sekinlik, inertlik, arazchilik kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan toifalarga mansublik: xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik	shaxsning o'zigagina xos bo'lgan fazilatlar va boshqalar

bir foyda chiqadurgan bo'lmasa, asalarilari orasida g'ung'ullab yurgan qovoqari kabi quruq g'o'ng'ullamoq faqat bosh og'rig'idan boshqa bir narsa emasdur. Boshimizga keladurgan qattig' kulfatlarning ko'pi yumshoq tilimizdan keladur. Shuning uchun: "Ko'p o'yla, oz so'yla", – demishlar. Tillarning eng yaxshisi so'zga usta til, so'zlarning eng yaxshisi bilub, oxirini o'ylab so'ylangan so'zdur.

*Go'zallik yuzda ermas, ey birodar,
So'zi shirin kishi har kimga yoqar.
So'zing oz bo'lsin-u ma'noli bo'lsun,
Eshitkanlar qulog'i durga to'lsun.
So'zing bo'lsa kumush, jim turmak oltin,
Misi chiqq'ay so'zing ko'p bo'lsa bir kun.
Ko'paygan so'zni bo'lgay to'g'risi oz,
Shakarning ko'pidan ozi bo'lur soz"*⁵.

Demak, olim insonlarni ushbu fikrlari orqali yaxshilikka, shirinso'zlikka chorlaydi, natijada so'zning yaxshiliklari va undan keladigan zararlarni oddiy tilda bayon etadi. Bu fikrlar hozirgi kunda, ayniqsa, yosh kelinlarimiz uchun juda manfaatli bo'ladi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

So'z va muloqot jarayonida amal qilinishi kerak bo'lgan qoidalar xususida Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridan quyidagi ba'zi fikrlarni keltirib o'tamiz:

*"Bilib so'zlangan so'z donolik sanaladi.
Bilimsizning so'zi esa o'z boshiga yetishi mumkin.
Ortiq so'zda aslo bo'larmi foyda.
Ziyondan bo'lak yo'q so'z ortiq joyda.
Hech qachon ko'p gapirma.
Juda oz so'zla.*

Tuman so'z tugunini bitta so'z bilan yozib yubor, ya'ni oz so'zlarga ko'proq ma'no singdirish payida bo'lg'in. Chunki:

*Kishi so'z tufayli bo'ladi malik.
Ortiq so'z bu boshni etadi egik.*

*Ortiqcha aytilgan so'z kishi ko'ngliga malol.
Ammo so'zlamalik ham mumkin emas. Bu holda soqov degan nomni orttirib olish mumkin. Shunga ko'ra o'rtacha yo'riq tutish lozim. Yo'riqni o'rtacha tutgan odam qut-iqbolga erishadi. Tilingni avayla – omondir boshing, So'zingni avayla – uzayar yoshing. Tilning keltiradigan nafi juda ko'p. Ularni g'ofillik qilib qo'ldan chiqarmaslik kerak. Til goho maqtalsa,*

*goho so'kishga mos bo'ladi. Shuning uchun qachon va qancha so'zlasang ham, bilib gapir. Gapirgan gaping ko'r odamlar uchun ko'z bo'lsin"*⁶.

Mazkur fikrlar, aslida, hamma insonlarga tegishlidir. Shuningdek, oilaviy munosabatlarda, ushbu ko'rsatmalarga amal qilish oila mustahkamligini ta'minlaydi. Chunki hozirgi kunda ko'pgina oilalar til orqali, ya'ni muloqot jarayonida qo'pol so'zlarni qo'llash, noo'rin so'zlar: qarg'ish, so'kish kabilarni ishlatish natijasida ham parokanda bo'lib ketyapti. O'zaro munosabatlarda arzimagan ortiqcha so'zlarni so'zlash oqibatida oilaviy nizolar kelib chiqmoqda. Oilaviy nizolarni bartaraf etishda bir qancha ko'rsatmalar qatorida yuqoridagi qimmatli fikrlarga ham amal qilinsa, foydadan xoli bo'lmaydi. Ushbu fikrlar garchi bir necha asrlar oldin yozib qoldirilgan bo'lsa-da, hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va eng asosiysi, hamma tushunadigan, sodda tilda yozilgan.

Darhaqiqat, yuqorida nomlari tilga olingan allomalarimiz asarlarida so'z vositasida bolalarga qanday tarbiya berish, ya'ni tarbiya jarayonida so'zning, nutqning, muloqotning o'rni qanchalik muhim ekanligi ijtimoiy-pedagogik jihatdan asoslab berilgan. Xususan, Abu Ali ibn Sinoning oila tarbiyasi masalalariga bag'ishlangan "Tadbir-al-manozil" asarida oilada ota-onaning vazifasi va burchiga hamda oilaviy munosabatlarga to'xtaladi. Xususan, ota oilada o'z farzandlariga har tomonlama yurish-turishda, nutq odobida, so'z madaniyatida, o'zaro muomala jarayonida, eng muhimi, amaliy ish faoliyatida to'g'rilik va haqqoniylik, samimiylukda namuna bo'lmog'i kerak. Oilada farzand tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yishning asosiy vositasi uning ma'naviy olamida e'tiqodni shakllantirish, deb hisoblagan edi olim⁷. Demak, olim tarbiya jarayonida ota va ona ega bo'lishi kerak bo'lgan bir necha ijobiy xislatlar qatorida nutq odobi va so'z madaniyati (muloqot madaniyati)ga ham urg'u beradi. Kuzatuvlardan ma'lum bo'ladiki, oilada er va xotinning qanchalik nutq odobiga egaligi uning farzandida o'z aksini topadi. Chunki bolaning tili dastlab oilada shakllanadi, oila a'zolari qay yo'sinda muloqot olib borsa, u farzandiga ham ko'chadi.

⁶ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig / Hozirgi o'zbek tiliga bayon qiluvchi B.To'xliyev. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – B. 17.

⁷ Hasanboyeva O. Oila pedagogikasi. – Toshkent: "Aloqachi" nashriyoti, 2007. – B. 8.

⁵ Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. www.ziyouz.com kutubxonasi. – B. 19.

Zero, xalqimizda “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan maqol bejizga aytilmagan.

Oilaviy munosabatlarda muloqotning samarali kechishi faqatgina chiroyli so‘zlarni so‘zlash yoki chiroyli ohangda gapirish bilan cheklanib qolmaydi. Bu xususda Kaykovusning “Qobusnoma” kitobida quyidagi fikrlarni ko‘rishimiz mumkin. “*Ammo, ey farzand, sen suxango‘y bo‘lg‘il va lekin durug‘go‘y (yolg‘onchi) bo‘lmas‘il. Rostgo‘ylikda o‘zing shuhrat qozong‘il, tokim biror vaqt zarurat yuzidin yolg‘on desang ham, rost deg‘il va lekin yolg‘onga o‘xshag‘on rostni demag‘ilkim, rostga o‘xshagan durug‘ (yolg‘on) durug‘ga o‘xshag‘on rostdin yaxshidir, nedinkim ul durug‘ maqbul bo‘lur, ammo ul rost maqbul bo‘lmas. Demak, nomaqbul rostni aytishdin parhez qil*”⁸.

Ko‘rinib turibdiki, kishi chiroyli so‘zlashi, ya‘ni suxandon bo‘lishi bilan birga rostgo‘y bo‘lishi ham kerak, toki bu orqali odamlar bir-biriga ishonadilar. Shuningdek, rostga o‘xshagan yolg‘on yolg‘onga o‘xshagan rostdan yaxshidir, zero, nomaqbul rost gapni aytishdan tiyilish kerak. Hozirgi kunda oila qurmoqchi bo‘lgan yoki qurayotgan va oila qurgan yoshlarimiz ongida ushbu fikrlar gavdalansa, ular qanday vaziyatda qay tarzda so‘zlashni tushunadilar.

Alloma yana shuni ham ta‘kidlaydiki, ba‘zi so‘zlar bor, ular aytilmaydigan so‘zlar, ya‘ni ular aytilmasa-da, bilinadi, seziladi yoki aksincha, so‘zlar ham mavjud. Shu bilan birga, kishi so‘z so‘zlaganda nima aytayotganini ham bilishi kerak, foydasiz, keraksiz so‘zlarni so‘zlaydigan odamlarni to‘ti deyishadi, chunki ular so‘zlaydi, ammo nima deyayotganini anglamay gapiraveradi⁹.

Demak, oilaviy muloqotni yuqorida bayon etilgan so‘z xususidagi nasihatlariga amal qilgan holda olib borish munosabatlar tizimida ijobiy holatga – oilaning mustahkam bo‘lishiga sabab bo‘ladi. To‘g‘ri, kuzatuvlar jarayonida oila barqarorligini ta‘minlashda samarali muloqotni kichik bir omil sifatida qarovchilar ham kuzatiladi, biroq janjal, murosasizlik bilan na moddiy, na ma‘naviy farovonlikka erishib bo‘ladi. Chunki bir kun janjal bo‘lgan oiladan qirq kun baraka ketadi.

Alisher Navoiy ham o‘zining “Mahbub ul-qulub” (“Ko‘ngillarning sevgani”) asarida insondagi yaxshi xislatlar qatorida fikr yuritarkan, shoir so‘z, ya‘ni shirin kalom har ko‘ngilga malham kabi bo‘lishini, yomon so‘z esa qalbda jarohat hosil qilib, unga hech narsa malham bo‘la

olmasligini, yomon til kishi boshiga ofat bo‘lishini ta‘kidlaydi. Navoiyning fikricha, so‘zda har yaxshilikning imkoni bor¹⁰. Shuningdek, Navoiy yolg‘on so‘zlashni qattiq qoralaydi: “*Har kimki, so‘zi yolg‘on, yolg‘oni zohir bo‘lg‘och uyolg‘on. Yolg‘onni chindek aytquvchi suxanvar – kumushni oltun ro‘kash qiluvchi zargar*”¹¹.

Ko‘rinib turibdiki, kundalik hayotimizda so‘zning o‘rni qanchalik ahamiyatli ekani asosli ravishda ifoda etilgan. Demak, oilada er va xotinning o‘zaro munosabatlarida so‘zdan foydalanishda yuqorida olimlarimiz asarlarida aks etgan tamoyillarga amal qilinsa, oilaviy nizolar ancha kamayadi. Nafaqat er va xotin munosabatlarida, balki farzandlarga tarbiya berish jarayonida ham ana shu nasihatlar uqtirib borilsa, kelajakda foydadan xoli bo‘lmaydi, natijada bolalar har xil yomon, bo‘lmas‘ur so‘zlaridan yiroq bo‘ladilar, ularning nutq madaniyati ham rivojlanib boradi va eng muhimi, yolg‘on so‘zlashni odat qilmaydilar. To‘g‘ri, hayotimizda har xil vaziyat bo‘ladi, qaysidir holatlarda yaxshilik uchun yolg‘on gapirishga majbur bo‘lib qolishimiz ham sir emas, ammo doimiy yolg‘on so‘zlash, ayniqsa, oilada oila a‘zolarining bir-biriga domiy yolg‘on gapirishi ahillikka putur yetkazadi. Shuning uchun ham Alisher Navoiy “*yolg‘on gapiruvchi g‘aflatdadir*”¹² deb aytadi.

Oilada shirin so‘z erkak uchun ham, ayol uchun ham birdek kerak. Xushmuomalalik, shirinso‘zlilik osuda hayot manbayi bo‘lsa, rostgo‘ylik esa oilada o‘zaro ishonchga asoslangan oila mustahkamligi paydevoridir.

Ko‘pchilik oilada o‘zaro mehr-muhabbatni oila tayanchi sifatida e‘tirof etadi. Lekin ana shu mehr-muhabbatning davomiy bo‘lishida muloqot juda katta rol o‘ynaydi. Muloqot orqali oila a‘zolar o‘rtasida samimiylilik, ahillik, birdamlik tuyg‘ulari yanada chuqur ildiz otadi. Shuning uchun ham har bir er va xotin oilasida go‘yo notiq bo‘lishi kerak. Bu haqida Abdurauf Fitrat o‘zining “*Oila yoki oila bshqarish tartiblari asarida quyidagicha yozadi: “Shu narsa ham ma‘lumki, muhabbat odamning ixtiyorida emas. Bizning mamlakatimizda er-xotin o‘rtalarida muhabbat paydo bo‘lishi uchun uylanish qoidalariga kifoya qilmaydi. Men bu masalani ham bayon qilgan edim. Lekin hozirgi vaqtda uylanish qoidasi shunday ekan, er-xotinning bir-birlariga nisbatan do‘stligi ishq-u muhabbat darajasiga yetmasa ham, shunday iloj topish lozimki, aqallan*

⁸ Кайковус. Қобуснома. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1986. www.ziyouz.com кутубхонаси. – Б. 41.

⁹ Ўша асар. – Б. 41.

¹⁰ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. www.ziyouz.com kutubxonasi. – Б. 52.

¹¹ O‘sha asar. – Б. 52.

¹² O‘sha asar. – Б. 53.

bir-birlaridan nafrat qilmasinlar. ...muhabbat moyillik bo'lib, husnga ishqibozlik natijasidir. Husn ham ko'rgan odam dilini o'z sohibi tomoniga moyil qilishi lozim. Agarda mana shu muqaddimga yaxshigina ahamiyat bersak, ma'lum bo'ladi, kelin va kuyov bir-birlarini ko'rmasdan nikoh qilingan bo'lsalar-da, o'rtalarida mehr va muhabbat paydo bo'lishi ham mumkin, hech bo'lmasa, ba'zi vosita va odo rivoyati bilan nafrat paydo bo'lmasligi lozim. Bir-birlariga odobsizlik va hurmatsizlik bilan suhbat qurmasliklari kerak. Kim o'z eridan hurmat va mehr ko'rmasa, unga muhabbat va ko'ngil ham qo'ymaydi"¹³.

Ushbu fikrlardagi *"bir-birlariga odobsizlik va hurmatsizlik bilan suhbat qurmasliklari kerak"* degan jumлага e'tibor beraylik. Demak, olimning nazdida, o'zaro mehr-muhabbat tuyg'usi faqat husn orqaligina hosil bo'lib qolmasdan, bunda yana boshqa ma'naviy masalalar ham borki, ulardan biri o'zaro samimiy suhbat, chiroyli nutqdir. Buning dalili sifatida olimning yana bir fikrini keltiramiz: *"... erkak hamisha tirikchilik bilan banddir. U o'z holiga qarab harakat qiladi va aksar vaqt hayot qiyinchiliklaridan qayg'urib, tushkunlikka tushadi. Agarda uylangan bo'lsa, kechasi uyiga kelib, umr yo'ldoshi bo'lmish xotini va turmush samarasi bo'lgan farzandlari bilan uchrashadi, suhbat qiladi va har qanday kulfat va kundalik tashvishlarini unutadi"*¹⁴. Bundan kelib chiqadiki, oilada oila

¹³ Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari / A. Fitrat; tarjimon va izohlar muallifi Sh.Vohidov; mas'ul maharrir H.Boltaboyev. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2013. – B. 44.

¹⁴ O'sha asar. – B. 14.

a'zolar o'rtasida shirin, samimiy suhbat natijasida ko'plab g'am-tashvishlar birozga bo'lsa-da, kishini tark etishiga ko'makchi bo'ladi.

Xulosa. Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, kezi kelganda, birgina so'z yo parokandalik yoki aksincha, barqarorlik kaliti bo'lishi mumkin. Nutq, so'z va muloqot to'g'risida Sharq allomalarining fikrlari bugungi modernizatsiya jarayonida ham o'z ahamiyatini saqlagan bo'lib, bu pand-u nasihatlar, ezgu fikrlarni, ayniqsa, yoshlar, er va xotinlar yanada teranroq anglashlari ularning oilaviy munosabatlarda, oilaviy nizo vaqtida ijobiy yechim topishlariga yordam beradi. Maqola asosida quyidagi taklif va tavsiyalarni berishimiz mumkin:

- avvalo, er va xotin oilaviy turmushining boshidanoq bir-biriga samimiy munosabatda, shirinso'zlik bilan muomala qilmog'i, bir-birining xarakter xususiyatini anglagan holda munosabatlarni to'g'ri yo'naltira olishga harakat qilishi lozim;
- natijada, kelgusida ular o'z farzandlariga nutq odobini bolaligidanoq o'rgatishi, bu borada er va xotin birdek mas'ul bo'lib harakat qilishi kerak;
- unutmazlik lozimki, bola muomala, muloqot madaniyatini oilada birinchi navbatda, ota-onasidan oladi, so'ngra tashqi muhitdan (bog'cha, maktab va hokazo);
- bundan kelib chiqadiki, ota-onalik maktabida ota-ona farzand uchun eng namunalı andoza bo'lishi lozim;
- bu borada esa yoshlarimiz turmush qurishidan oldinoq yuqorida nomlari va asarlari tilga olingan mutafakkirlarimizning o'gitlarini o'qib-o'rganib, chuqurroq anglamog'i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. https://daryo.uz/2020/12/26/shavkat-mirziyoyev-songgi-11-oyda-yosh-oilalar-ortasida-qancha-ajrim-qayd-etilganini-malum-qildi/?fb_comment_id=3750635561670728_3750706044997013/
2. Musayev A. Nutqni shakllantirish omillari va uning asosiy xususiyatlari.
3. "Оила" энциклопедияси / Тузувчилар: Акрамова Ф.А., Билолова З.Б., Жовлиев И.С. – Тошкент: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Давлат илмий нашриёти, 2019. – 240 б.
4. Сафаров Ш. Прагмалингвистика / Монография. – Тошкент, 2008. – Б. 135.
5. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. www.ziyouz.com kutubxonasi. – 47 b.
6. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig / Hozirgi o'zbek tiliga bayon qiluvchi B.To'xlijev. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – 200 b.
7. Hasanboyeva O. va b. Oila pedagogikasi. – Toshkent: "Aloqachi" nashriyoti, 2007. – 384 b.
8. Кайковус. Қобуснома. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1986. www.ziyouz.com кутубхонаси. – 168 б.
9. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. www.ziyouz.com kutubxonasi. – B. 52.
10. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari / A.Fitrat; tarjimon va izohlar muallifi Sh.Vohidov; mas'ul maharrir H.Boltaboyev. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2013. – 144 b.